

UYG‘UR TABOBATI ATAMALARINING TARTIBLANISH TAMOYILLARI

Gisarov Farxod

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon Uyg‘ur avtonom okrugida an‘anaviy uyg‘ur tabobati (AUT) darsligi sifatida qo‘llanib kelinayotgan “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” entsiklopediyasi va unda jamlangan ‘an‘anaviy uyg‘ur tabobati (AUT)da ishlatiladigan dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar nomlari, turli minerallar va ma‘danlarning nomlarini o‘z ichiga olgan uyg‘ur xalq tabobati atamalarining tartiblanishi tamoyillari hamda bunday tartiblanishining metodologik va ilmiy asoslari tahlil etiladi.

Tabobat atamalarining yasalishi va ularning boshqa tillardagi variantlari o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlari, uyg‘ur tilidagi atamalarining tabobat taraqqiyot jarayonida yoyilish yo‘llari, bu sabab va omillarning uyg‘urshunoslik fani va tabobat terminologiyasi rivojidadagi ahamiyati masalalariga e‘tibor qaratiladi.

***Kalit so‘zlar:** Xalq Tabobati, Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi, an‘anaviy uyg‘ur tabobati (AUT), tabobat terminlari, “xom doru”,*

ABSTRACT

The article analyzes the principles of classification of Uyghur folk medicine terms, including the names of medicinal plants used in traditional Uyghur medicine (AUT), the names of various minerals and ores, and the methodological and scientific foundations of such classification, as well as the encyclopedia "Uyghur Medicine Science of Raw Materials", which is used as a textbook for traditional Uyghur medicine (AUT) in the Xinjiang Uyghur Autonomous Region of the People's Republic of China.

The article focuses on the relationship between the formation of medical terms and their variants in other languages, the ways in which terms in the Uyghur language spread in the process of medical development, and the importance of these reasons and factors in the development of Uyghur studies and medical terminology.

***Keywords:** Folk Medicine, Uyghur medicine, the science of raw materials, traditional Uyghur medicine (AUT), medical terminology, "raw materials",*

KIRISH

Dunyo xalqlari tabobati tarixida Xitoy, Hindiston, Misr va Rum tabiblari tomonidan yaratilgan ulkan meroslar jahon tamadduniga qo‘shilgan ulkan xazinalar sifatida o‘ta muhim ahamiyatga ega.

“Hatto tosh asridagi xitoylik shifokorlar ham bemorlarni bugungi an’anaviy xitoy tibbiyoti ruhida davolashgan: xitoylik arxeologlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari jarayonida tibbiyot maqsadlarida ishlatish uchun mo‘ljallangan tosh ignalarni topilgan bo‘lib, keyinchalik, bronza va temir asrlarida, eski tosh ignalar tobora yupqa metallardan yasalgan ignalar bilan almashtirilganligi aniqlandi.

Shuningdek, shifokorlar bemorlarga tez tibbiy yordam berish uchun kauterizatsiya davolash usulidan ham foydalanganligi aniqlangan. Bu usul – o‘simliklar, minerallar va hayvonlarning alohida tana qismlari kabi tabiiy moddalardan dori tayyorlash hamda xalq tabobatida qo‘llash usulini anglatadi. Ular Xitoy tibbiyotining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega edi”¹.

Qadimgi tabiblar tomonidan ishlab chiqilgan tabiblik tajribalari hamda usullari tildan-tilga, ustozlardan shogirdlarga o‘tib saqlanib kelgan. Bu tabobat malakalari og‘zaki ma’lumotlar sifatida yoki yozma asarlar ko‘rinishida shakllangan bo‘lib, xalq shifokorlari amaliyotlarida qo‘llab kelingan va bu an’ana hozirga qadar davom etib keladi.

“Qadimgi an’anaviy yozma” xalq tabobati xitoy, hind (Ayurveda, yoga, Siddha), eron (Unani) tabobatlarida uchraydi, ammo og‘zaki xalq tabobati amaliyotiga ega bo‘lgan Sharqiy slavyanlar an’anaviy yozma tibbiyotning o‘z versiyalarini ishlab chiqmagan, yozuv paydo bo‘lgandan keyingi davrlarda “an’anaviy og‘zaki” amaliyotlarga qo‘shimcha ravishda Xitoy va Hindiston tibbiyotidan o‘zlarining “an’anaviy xalq tabobati” tarzida yozilgan davolash usullari uchun g‘oyalar olishni boshlaganlar”².

Ibn Sino nomi bilan dunyoga mashhur bo‘lib bo‘lgan Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali jahon tabobati va tib ilmlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Movarounnahrlik yirik qomusiy olimdir. Abu Ali ibn Sino tabobat ilmiga oid meroslarni qayta ko‘rib chiqish, “chuqur” o‘rganish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish asosida tib ilmlari tamoyillarini ilg‘or qarashlar asosida bir tizimga birlashtirgan olimdir. Abu Ali ibn Sino ijodiy izlanish g‘oyasini tanqidiy nuqtai nazardan jonlantirishga intildi hamda oldingi fan yutuqlarini qaytadan ishlab chiqdi, tizimlashtirdi va rivojlantirdi.

Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobining tabiatshunoslik bo‘limida u mineral moddalarning tasnifini, ularning shakllanishi nazariyasi belgilab berdi. Abu Ali ibn Sino mineral jismlarni to‘rt guruhga: toshlar, eruvchan moddalar, oltingugurt va tuzlarga ajratdi. Uning ushbu tasnifi Jobir ibn Hayyon va Muhammad Zakariyo

¹ Окно в Китай: Традиционная китайская медицина. Истоки китайской медицины. Статья. Генеральное Консульство Китайской Народной Республики в г.Хабаровске. 2004-05-22 20:42

² Инатуллаева Р.Ю. Народная медицина. НамГУ. 2024. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/13/NamDU-ARM-6011.pdf>. С. – 92.

Roziylarning tasniflariga nisbatan soddaligi va betakrorligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

MUHOKAMA

Abu Ali ibn Sinoning tabiiy va mineral moddalarni tasniflash borasida amalga oshirgan dasturi nafaqat Movarounnahr va Xuroson yurtlari tabobat ilmini tizimlashtirishga, balki uyg'ur tabiblarining ilmiy izlanishlar sohasidagi tadqiqotlarining samaradorligini oshirish, tibbiy ta'lim jarayonlarini tizimlashtirish, soha rivoji uchun kelgusi rejalarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlar taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shdi.

“Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi” nomli entsiklopediya bugungi uyg'ur tabibchilik sohasi tajribalarini o'z iciga olgan muhim darslik qo'llanma hisoblabadi.

Bu qo'llanmaning Umumiy qismining birinchi bobi “Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi haqida tushuncha” deb nomlangan bo'lib, xom dorilar ilmiga quyidagicha ta'rif beriladi: “Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi – uyg'ur tabobati asosiy fanlarining amaliyot qismiga kiruvchi, katta salmoqli, kuchli amaliylikka ega va o'rganilishi bir qadar murakkab bo'lgan muhim fanlardan biri sanaladi. Uyg'ur tabobatini o'rganishni maqsad qilgan har bir kishi bu fanni albatta bilmog'i zarurdir”³

Ushbu entsiklopediya Umumiy qismining birinchi paragrafi “Uyg'ur tabobati xom dorilari haqida tushuncha” deb nomlanadi va unda inson organizmini tashkil etgan unsurlar haqida ma'lumotlar bayon etiladi: “Xom dorilarning yaratilishidagi asosiy unsurlar to'rtta bo'lib, ular – olov, havo, suv va tuproqdan iborat va bu 4 ulkan moddalar (“to'rt tod”) bo'lib, ular o'zlarining kayfiyat hamda xususiyatlari orqali tabiat dunyosidagi barcha jonli-jonsiz moddalarga hamma vaqt ta'sir ko'rsatib, ularda muayyan mijozni shakllantiradi”⁴.

Uyg'ur tabiblari mana shu sanab o'tilgan 4 unurning hatto inson organizmi tarkibiy tuzilishi va jismoniy mavjudligi uchun ham muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

“Insonlar ushbu 4 moddaning ta'sirida muayyan mijozga ega bo'lgan ozuqalarni iste'mol qilishlari natijasida inson tanasida tiriklik uchun muhim sanalgan 4 xilt shakllanadi. Inson organizmi bu xiltlardan ozuqlanib, hayotiylikni davom ettiradi hamda shunga mos ravishda organizmida muayyan mijozlar shakllanadi. Shuning uchun inson organizmida mijoz va xiltlarning normal holda tutib turilishi inson salomatligining asosi hisoblanadi. Biroq, turli tashqi yoki ichki sabablarga ko'ra

³ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qismli. 1130 b. بىرىنچى توم. / Umumiy qism. file:///C:/Users/User/Desktop.1-qism.; pdf. B. – 3.

⁴ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qismli. 1130 b. بىرىنچى توم. / Umumiy qism. file:///C:/Users/User/Desktop.1-qism.; pdf. B. – 3.

inson tanasidagi mijozlar va xiltlar muvozanatiga putur etsa, buning oqibatida inson organizmida ham biror kasallik alomatlarini paydo bo'ladi".⁵

Shu o'rinda dorilarning ham muayyan tabiat va xususiyatlarga egaligi, organizmga tushgach o'ziga xos ta'sir ko'rsatishi va dorilarning "tabiat" kuchiga yordam beradigan muhim bir vosita"⁶lik xususiyatlari muayyan maqsadlar uchun qo'llanishini ta'kidlanadi.

Shunga ko'ra, dori – davolash tadbirlari ichida murakkab va muhim tarkiblarning biri deb qaraladi. "Dorilarni har bir kishining yoshi, millati, jinsi, organizmining kuchli yoki oijizligi, kasallikning og'ir yoki yengillik darajasi, bemor yashayotgan yurtning iqlim sharoiti, ekologik klimati, geografik o'rni, kasal bo'lgan fasli, bemorning turmush tarzi, hamda urf – odatlari, qanday mahsulotlarni iste'mol qilishi, kasbi kabi jihatlarini inobatga olgan holda tavsiya qilish talab qilinadi"⁷.

Qo'llanmaning ikkinchi paragrafu "Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmining tadqiqot obyekti" deb ataladi va bunda tabiyatda mavjud uyg'ur tabobatida ishlatilib kelinayotgan dorilarga qo'yiladigan talablar, jumladan:

- dorining nomi,
- kelish manbayi,
- dorilarni farqlantiradigan xususiyatlari,
- ishlatiladigan kasalliklar
- ishlatish usullari
- zaharlilik va ziyonlilik ta'sirlari,
- ishlatish miqdori, diqqat qilinadigan jihatlarini,
- dorilarning soflik darajasini sinovdan o'tganligi
- sertifikatlari haqiqiy ekanligi
- dorilarning ximiyaviy tarkibi va farmakologik ta'siri kabilar muhim ekanligi

ta'kidlanadi.

Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi uchun muhim bo'lgan mazkur tamoyillar tabobat asarlarida dorivorlik atamalarining tasniflanishida ham muhim omil vazifasini bajarganligini ko'rish mumkin.

NATIJALAR

2012 yilda Shinjong Xalq Sixxiya nashriyotida Ali Hoji Emchi, Abdurahim Yusup, Ruqiya Qovuz, Abul Qosim Muhammad Siddiqlar hammuallifligida II qismdan iborat "Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi" entsiklopediyasi chop etildi.

⁵ O'sha o'rinda. B. – 3.

⁶ Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qismli. 1130 b. بىرىنچى توم. / Umumiy qism. file:///C:/Users/User/Desktop.1-qism.; pdf. B. – 3.

⁷ O'sha o'rinda. B. – 3.

Ushbu entsiklopedik qo'llanma Uyg'ur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (O'quv yurt)lari uchun darslik vazifasini o'tab kelmoqda.

Kitob uyg'ur dorivor o'simliklar bilan davolash tarixi, tibbiy usullarning benazirligi, xalq tabobati texnikasi, inson tanasining fiziologik tuzilmalari orasidagi uzviy bog'liqlik, inson tana a'zolarining faoliyati, ushbu faoliyatni yaxshilash yo'lida foydali dorivorlarning o'ziga xos ahamiyatli jihatlari, tabiatda xom uchraydigan shifobaxsh o'simliklarning turlari, ulardan inson salomatligini yaxshilashda qo'llash metodlari, mazkur o'simliklarning kimyoviy tarkiblari va ularni tabobatda ishlatish me'yorlari kabi masalalarni batafsil yoritishga qaratilgan.

Darslik o'ziga qadar ikkinchi avlod o'quv qo'llanmalari sifatida foydalanib kelingan 26 ta kitobdagi ma'lumotlarni o'z ichiga jamlagan bo'lib, bundan tashqari uyg'ur tabobati va dorivor o'simliklar yo'nalishida mavjud klassik(mumtoz) asarlarni hamda ikki maktab tajribalarini asos qilib olganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur darslikning umumiy qismi birinchi bobi uyg'ur tabibchiligida o'simliklarni o'rganish, dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar, uyg'ur tabobati dorivor o'simliklari tadqiqot ob'ekti, tabobat ilmining vazifalari, o'rganish usullari, tabobat fanining qisqacha tarixi, dorivorlik ilmining taraqqiyot yo'nalishlari to'g'risidagi oltita paragrafdan tashkil topgan.

Umumiy qismning ikkinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo'lib, bu paragraflarda xom dorilarning kelish mabalari, yig'ish usullari, saqlash, unumli saqlash muddatlari haqida ma'lumotlar batafsil keltirilgan.

Umumiy qismning uchinchi bobi yetti paragrafdan tashkil topgan va unda uyg'ur tabibchiligida dorivor o'simliklarni tanish, farqlash usullari borasida bilimlar jamlangan.

Umumiy qismning to'rtinchi bobida to'rtta paragraf mavjud. Bu paragraflarda dorivor o'simliklar tabiatini belgilash va ularni o'z xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratish borasida amaliy materiallar jamlangan.

“Uyg'ur tabobati xom dorivorlari ilmi” darsligining Maxsus qismi 19 (o'n to'qqiz) bobdan iborat. Maxsus qismda xiltsiz quruq issiq, xiltsiz ho'l issiq, xiltsiz ho'l sovuq, xiltsiz quruq sovuq o'simliklar, mevalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Masalan, xiltli dorivor o'simliklar o'simliklar nomlari quyidagi tartibda keltirilgan:

Xiltli dorivor o'simliklar:

- g'ayritabiiy safroni tashuvchilar;
- g'ayri tabiiy balg'am xiltini tashuvchilar;
- g'ayri tabiiy savdo xiltini tashuvchilar;
- g'ayri tabiiy qon xiltini tashuvchilar;

G‘ayri tabiiy xiltlarni pishiruvchi dorivorlar;
 -g‘ayri tabiiy xiltlarni suruvchi dorivorlar;
 -qon tozalovchi dorivorlar;
 -qon ko‘paytiruvchi dorivorlar;
 -qonni suyultiruvchi dorivorlar;
 -qon to‘xtatuvchi dorivorlar;
 -ishtaha ochuvchi dorivorlar;
 -yallig‘lanishga qarshi ishlatiluvchi dorivorlar;
 -qizdiruvchi dorivorlar;
 -qizitma qaytaruvchi-isitma tushiruvchi dorivorlar;
 -siydik haydovchi dorivorlar;
 -tosh parchalovchi dorivorlar;
 -ich ketishini tartibga keltiruvchi dorivorlar;
 -madda qurtini o‘ldiruvchi dorivorlar;
 -hayzni tartibga soluvchi dorivorlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan.

XULOSA

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni o‘rinli deb qarash mumkin:

1. Xitoy, Hindiston, Misr va Rum tabiblari tomonidan yaratilgan ulkan meroslar jahon tamadduniga qo‘shilgan ulkan xazinalar sifatida o‘ta muhim ahamiyatga ega.
2. Qadimgi tabiblar tomonidan ishlab chiqilgan tabiblik tajribalari hamda usullari tildan-tilga, ustozlardan shogirdlarga o‘tib saqlanib kelgan.
3. Keyingi davrlarda “an’anaviy og‘zaki” amaliyotlarga ega bo‘lgan tabiblar Xitoy va Hindiston tibbiyotidan o‘zlarining davolash usullari uchun g‘oyalar olishni boshlaganlar.
4. Tabobat tarixida Abu Ali ibn Sino tabobat ilmiga oid meroslarni qayta ko‘rib chiqib, o‘rganib, to‘g‘ri xulosalar chiqarish asosida tib ilmlari tamoyillarini ilg‘or qarashlar asosida bir tizimga birlashtirgan olim sifatida e’tirof etiladi.
5. Abu Ali ibn Sino mineral jismlarni to‘rt guruhga tasniflash usuli Jobir ibn Hayyon va Muhammad Zakariyo Roziylarning tasniflariga nisbatan soddaligi va betakrorligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.
6. Abu Ali ibn Sinoning tabiiy va mineral moddalarni tasniflash usuli nafaqat Movarounnahr va Xuroson yurtlari tabobat ilmini tizimlashtirishga, balki uyg‘ur tabiblari amaliy faoliyatlari uchun ham dfsturulamal bo‘lib xizmat qilgan.
7. “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” nomli entsiklopediyada xom dorilarning yaratilishidagi asosiy unsurlar to‘rtta – olov, havo, suv va tuproqdan

iborat deb tasnif qilinishi Islomdan avvalgi davrlarning mifologik talqinlariga aloqador fikrlar sifatida qaralishi lozim.

8. Uygʻur tabobati tarixi davomida uygʻur tabobatida ishlatilib kelinayotgan dorilarga qoʻyiladigan talablar majmuasi ishlab chiqilgan.

9. Uygʻur tabobatchilik-dorigarchilik (farmatsevtika) oliy maktab (Oʻquv yurt)lari uchun darslik vazifasini oʻtab kelayotgan “Uygʻur tabobati xom dorilar ilmi” entsiklopediyasida dorivor oʻsimliklar va mevalar nomlari va atamalari xiltsiz quruq issiqlik, xiltsiz hoʻl issiqlik, xiltsiz hoʻl sovuqlik, xiltsiz quruq sovuqlik, tabiiy xususiyatlar, qaysi kasallikka davo boʻlish kabi tamoyillarga koʻra tasniflangan.

10. Qoʻllanmada oʻsimliklar nomlari bilan bogʻliq atamalarning leksik-etimologik, ijtimoiy-madaniy, semantik-fitonomik jihatlarini tahlil qilish maqsad qilib belgilanmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Nazarova G.Sh. Nazvaniya lekarstvennix rasteniy v sovremennom uygurskom yazike: avtoref. dis. kand... filol. nauk. Alma-Ata, 1992. Dissertatsiya. <http://www.dslib.net/jazyki-rosii/nazvanija-lekarstvennyh-rastenij-v-sovremennom-ujgurskom-jazyke.html>
2. Abdurahim Yusup., Ali Hoji Emchi. Uygʻur tabobati xom dorilar ilmi. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyoti. 2012 y. II qism. 1130 b.
3. Shomiyeva A., Saidvaqqosov Gʻ. Uygʻur tili grammatikasi. Almata. 1967. B – 50.
4. Ёулдош Мирзаев, Жуманазар Мадиев. ТИБ ИЛМИ ЯЛОВБАРДОРИ (Абу Али ибн Сино хаёти ва фаолиятидан лавхалар) «Тафаккур» нашриёти. Тошкент – 2016. 36-бет.
5. Adelijang Wusiman, Saifuding Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Zhang. Traditional Uyghur Medicine: Concepts, Historical Perspective, and Modernization. (Adelijang Vusiman, Saifudin Abula, Mikeremu Shayibuzhati, Xiaoying Chjan. An'anaviy uyg'ur tabobati: tushunchalar, tarixiy istiqbol va modernizatsiya).Maqola. 2017. 23. 06. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28646808/>
6. Razzaqova O., Toʻrakulova S. (2022). Terminologiya va uning tarixi. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(4), 905–908. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/364>
7. Dadaboyev H. Oʻzbek Terminologiyasi: oʻquv qoʻllanma/ Hamidulla Dadaboyev. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.